https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Yakubov Jalolbek Jo'rabek o'g'li

Urganch Davlat Universiteti Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar fakulteti Yurisprudensiya yo'nalishi

ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH SOHASIDAGI HUQUQIY MEXANIZMLARNING AHAMIYATI VA TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Annotatsiya

Mazkur ilmiy maqolada atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi huquqiy mexanizmlarning nazariy va amaliy jihatlari kompleks tahlil qilindi. Ekologik muammolarning globallashuvi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish zarurati hamda ekologik xavfsizlikni ta'minlash masalalari zamonaviy huquq tizimida muhim o'rin egallamoqda. Tadqiqot jarayonida ekologik huquq tushunchasi, uning predmeti va prinsiplari ochib berildi, shuningdek O'zbekiston Respublikasida atrof-muhitni muhofaza qilish maqsadida yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga kiritilgan ekologik normalar va qonunchilikdagi o'zgarishlar tahlil qilingan. Ekologik huquqbuzarliklar uchun belgilangan yuridik javobgarlik turlari hamda ularning qo'llanish amaliyoti o'rganilgan. Maqolada xorijiy davlatlar tajribasi asosida ekologik nazorat va huquqiy tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish yo'llari ko'rsatib berilgan. Hozirgi kunda mintaqaviy va global miqyosda ekologiy xavfsizlikka tahdid solayotgan Orol fojiasi asrning eng yirik ekologik halokatlaridan biri bo'lib kelmoqda. Maqola xulosalari Orolbo'yi mintaqasida ekologik barqarorlikni ta'minlash, ekologik qonunchilikni rivojlantirish va amaldagi rolini kuchaytirish hamda ekologik-huquqiy madaniyatini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

ekologiya, ekologik huquq, atrof-muhit, ekologik xavfsizlik, huquqiy mexanizm.

Аннотация

В данной научной статье проводится комплексный анализ теоретических и практических аспектов правовых механизмов охраны окружающей среды. Глобализация экологических проблем, необходимость рационального использования природных ресурсов и обеспечение экологической безопасности занимают важное место в современной правовой системе. В ходе исследования раскрываются понятие экологического права, его предмет и принципы, а также анализируются экологические нормы, внесённые в Конституцию Республики Узбекистан в новой редакции, и изменения в экологическом законодательстве. Изучены виды юридической ответственности за экологические правонарушения и практика их применения. На основе зарубежного опыта в статье рассматриваются пути совершенствования механизмов экологического контроля и правового регулирования. В настоящее время Аральская катастрофа, представляющая угрозу экологической безопасности на региональном и глобальном уровнях, является одной из крупнейших экологических трагедий века. Выводы статьи направлены на обеспечение экологической устойчивости Приаральского региона, развитие экологического законодательства, усиление его практической роли и повышение уровня экологико-правовой культуры.

Ключевые слова

экология, экологическое право, окружающая среда, экологическая безопасность, правовой механизм.

Abstract

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

This scientific article provides a comprehensive analysis of the theoretical and practical aspects of legal mechanisms for environmental protection. The globalization of environmental problems, the need for rational use of natural resources, and the provision of environmental security occupy an important place in the modern legal system. The study examines the concept of environmental law, its subject matter and principles, as well as environmental norms introduced in the new edition of the Constitution of the Republic of Uzbekistan and recent changes in environmental legislation. The types of legal liability for environmental offenses and the practice of their application are analyzed. Based on foreign experience, the article identifies ways to improve mechanisms of environmental control and legal regulation. Currently, the Aral Sea disaster, which poses a threat to environmental security at both regional and global levels, remains one of the largest environmental catastrophes of the century. The conclusions of the article include scientific and practical recommendations aimed at ensuring environmental sustainability in the Aral Sea region, developing environmental legislation, strengthening its practical role, and enhancing environmental legal awareness.

Keywords

ecology, environmental law, environment, environmental security, legal mechanism.

Bugungi kundagi ekologik vaziyat butun dunyo uchun eng dolzarb muammoga aylanib ulgurdi. Iqlim o’zgarishi, tabiiy resurslarning kamayishi va suv havzalarining iflolanishi insoniyat oldiga jiddiy huquqiy va ijtimoiy vazifalarni qo’ymoqda. Shu bois ekologik munosabatlani tartibga solish davlat siyosatining ustuvor yo’nalishlaridan biri bo’lib qolmoqda. O’zbekiston Respublikasida ekologik xavfsizlikni ta’minlash, fuqarolarning sog’lom aftrof muhtida yashash huquqini kafolatlash masalalari konstitutsiyaviy darajada mustahkamlangan. Mazkur maqolaning maqsadi ekologiy huquqiy mexanizmlarni ahamiyatini ilmiy jihatdan tahlil qilish va ularni takomillashtirish bo’yicha takliflarni ishlab

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

chiqishdan iborat. Ekologik huquq tushunchasiga ta’rif beradigan bo’lsak, ekologik huquq — bu atrof-muhitni muhofa qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda ekologik xavfsizlikni ta’minlash jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquq normalari majmuasidir. Ushbu huquq sohasi inson va tabiat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni muvozanatli tashkil etishga, hozirgi va kelajak avlodlarning sog‘lom atrof-muhitda yashash huquqini ta’minlashga qaratilgan.Zamonaviy sharoitda ekologik huquq mustaqil huquq sohasi sifatida shakllanib, konstitutsiyaviy, ma’muriy, fuqarolik va jinoyat huquqi bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolarning sog‘lom atrof-muhitda yashash huquqi e’tirof etilishi ekologik huquqning asosiy manbalaridan biri hisoblanadi.

Ekologik huquqning predmeti atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan foydalanish va ularni qayta tiklash jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy-huquqiy munosabatlardan iborat. Ushbu munosabatlar yer, suv, o‘rmon, yer osti boyliklari, atmosfera havosi, o‘simlik va hayvonot dunyosiga doir munosabatlarni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, ekologik huquqning predmeti ekologik nazorat, ekologik ekspertiza, atrof-muhitga yetkazilgan zararni qoplash hamda ekologik huquqbuzarliklar uchun yuridik javobgarlik bilan bog‘liq munosabatlarni ham qamrab oladi.

Atrof-muhitni muhofaza qilish va fuqarolarning ekologik huquqlarini ta’minlash maqsadida 2023-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 49-moddasida ‘’ Har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to‘g‘risidagi ishonchli axborotga ega bo‘lish huquqiga ega. Davlat fuqarolarning ekologik huquqlarini ta’minlash va atrof-muhitga zararli ta’sir ko‘rsatilishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Shaharsozlik hujjatlarining loyihalari qonunda belgilangan tartibda jamoatchilik muhokamasidan o‘tkaziladi. Davlat barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq, atrof-

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Davlat Orolbo‘yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish yuzasidan choralar ko‘radi’’ deb mustahkamlangan. Unga ko’ra davlat barcha uchun ekologik huquqlarni ta’minlash va ularni rivojlantirishni o’z zimmasiga olgan, shuningdek Orolbo’yi mintaqasida yashovchilarning ekologik huquqini muhofaza qilish bo’yicha alohida norma kiritilgan. Ekologiyani muhofaza qilishga qaratilgan normative-huquqiy hujjatlardan biri-bu 1992-yil 9-dekabrda qabul qilingan ‘’ Tabiatni muhofaza qilish to’g’risida’’gi Qonunni bo’lib, qonunni qabul qilishdan maqsad tabiiy muhit sharoitlarini saqlashning, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy asoslarini belgilab beradi inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlar uyg‘un muvozanatda rivojlanishini, ekologiya tizimlari, tabiat komplekslari va ayrim obyektlar muhofaza qilinishini ta’minlashdan, fuqarolarning qulay atrof muhitga ega bo‘lish huquqini kafolatlashdan iboratdir. Ushbu qonunning 12-moddasiga ko’ra ‘’ O‘zbekiston Respublikasi aholisi o‘z salomatligi va kelajak avlodning salomatligi uchun qulay tabiiy muhitda yashash, o‘z salomatligini atrof muhitning zararli ta’siridan muhofaza qilish huquqiga ega. Ana shu maqsadda O‘zbekiston Respublikasi aholisi tabiatni muhofaza qilish bo‘yicha jamoat tashkilotlariga birlashish, atrof tabiiy muhitning ahvoli hamda uni muhofaza qilish yuzasidan ko‘rilayotgan chora-tadbirlarga doir axborotlarni talab qilish va olish huquqiga ega. O‘zbekiston Respublikasi aholisi tabiiy resurslardan oqilona foydalanishi, tabiat boyliklariga ehtiyotlik bilan munosabatda bo‘lishi, ekologiya talablariga rioya etishi shart’’. Shunga asosan aholi o’z salomatligiga xavf tug’diradigan barcha ekologik zararlardan himoyalangan va bu mas’uliyat davlatning zimmasida ekanligi belgilab o’tilgan. Mazkur moddaga binoan O‘zbekiston Respublikasida yashovchilar jamoat birlashmalarini tashkil etish va atrof-muhit haqida ma’lumotlar olish huquqiga egaligi ta’kidlangan. Ushbu qonunning V bobida tabiat resurslaridan oqilona foydalanish(16-modda), tuproqdan foydalanish shartlari(17-

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

modda), yer osti boyliklari va foydali qazilmalardan foydalanish shartlari(18-modda), suvlar va suv havzalaridan foydalanish shartlari(19-modda), atmosfera havosidan foydalanish shartlari(20-modda), Jonli tabiat obyektlaridan foydalanish shartlari(21-modda) vachiqindi bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish shartlari(22-modda) haqida normalar keltirilgan.

Davlat ekologiya ekspertizasi xo‘jalik qarori qabul qilinishidan oldin o‘tkazilishi shart bo‘lgan atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish maqsadida davlat ekspertizasi tashkil etilgan bo’lib, uning asosiy manbasi 2025-yil 25-fevralda qabul qilingan ‘’ Ekologik ekspertiza, atrof-muhitga ta’sirni baholash va strategik ekologik baholash to‘g‘risida’’gi qonun qabul qilingan. Mazkur normativ-huquqiy hujjatda ekologik ekspertiza o’tkazishda talablar va shartlari belgilab o’tilgan. Qonunning 8-moddasida ekologik ekspertiza obyektlari keltirilgan bo’lib, ular quyidagilar:

barcha turdagi qurilishlar uchun yer uchastkalarini tanlash va (yoki) ajratish materiallari;

loyihaoldi va loyiha hujjatlari;

tabiiy resurslardan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan xo‘jalik faoliyatini hamda boshqa faoliyatni tartibga soluvchi normativ-texnik va yo‘riqnoma-uslubiy hujjatlar, shu jumladan texnik reglamentlar va shartlarning, standartlarning, qoidalar hamda yo‘riqnomalarning loyihalari;

chiqindilarni zararsizlantirish, qayta ishlash va utilizatsiya qilish uchun yangi turdagi texnologiyalarni hamda texnika vositalarini, materiallar, buyumlarni, biologik, kimyoviy moddalarni va vositalarni yaratish bo‘yicha hujjatlar;

atrof-muhitning holatiga va inson sog‘lig‘iga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi ishlab turgan korxonalar hamda boshqa obyektlar;

maxsus huquqiy rejimga ega bo‘lgan obyektlar.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

‘’Davlat ekologik ekspertizasini moliyalashtirilishi qonunchilikda belgilangan tartibda buyurtmachining (tashabbuskorning) mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi’’ deb mazkur qonunning 12-moddasida belgilangan. Amaliyotda bu norma shuni anglatadiki, har bir loyiha yoki tashabbus ekologik ekspertiza xarajatlarini o‘z mablag‘i hisobidan qoplashga majbur, bu esa loyihalarni ekologik jihatdan puxta tayyorlashni rag‘batlantiradi. Shu bilan birga, davlat ekologik nazoratni amalga oshiruvchi organlar ekspertizani mustaqil va adolatli tarzda o‘tkazish imkoniyatiga ega bo‘ladi.


Davlat ekologik ekspertizasioni o’tkazish muddati haqida ma’lumot qonunning 15-moddasida mustahkamlangan. Unga ko’ra, davlat ekologik ekspertizasini o‘tkazish muddati yigirma besh ish kunidan oshmasligi kerak. Davlat ekologik ekspertizasi obyektining murakkabligiga qarab, uni o‘tkazish muddati maxsus vakolatli davlat organi tomonidan ko‘pi bilan uch oy muddatga uzaytirilishi mumkin. Davlat ekologik ekspertizasini o‘tkazish muddati davlat ekologik ekspertizasining qiymati to‘liq to‘langandan keyingi ish kunidan e’tiboran hisoblanadi.

Hozirgi kunda yana bir ekologik muammolari qatorida suv tanqisligidir. Suvdan foydalanish qoidalarining buzilganligi, ulardan nooqilona foydalanish natijasida kelib chiqayotgan ekologik oqibatlar suv havzalarida suv miqdorining keskin kamayib ketishi yoki umuman yo’q bo’lib ketishiga olib kelmoqda. Shu asosda 2025-yilda ‘’Suv kodeksi’’ qabul qilingan. Ushbu kodeksning maqsadi suv, suv obyektlari, suv xo‘jaligi obyektlari va suv fondi yerlaridan oqilona foydalanish hamda ularni muhofaza qilishdan iborat. Shu kodeksning 11-moddasida ‘’ Suv umummilliy boylikdir, undan oqilona foydalanish lozim va u davlat tomonidan muhofaza qilinadi’’ degan norma belgilangan. Unga ko’ra suv resurslari umummilliy boylik sifatida davlat muhofazasi ostida bo‘lishi, ularni barqaror boshqarish va ekologik xavfsizlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Shu tartib milliy va xalqaro ekologik qonunchilik prinsiplari bilan ham mos keladi. Kodeksning 13-

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

moddasi ‘’Suv xo‘jaligi obyektlari davlat mulkida (respublika, munitsipal mulkida) yoki xususiy mulkda (fuqarolar, fermer va dehqon xo‘jaliklari, shuningdek davlatga qarashli bo‘lmagan boshqa yuridik shaxslar mulkida) bo‘lishi mumkin. O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq boshqa davlatlar hududida joylashgan O‘zbekiston Respublikasining suv xo‘jaligi obyektlari O‘zbekiston Respublikasining mulkidir’’. Mazkur normada keltirilgan Davlat mulki – suv inshootlari Respublika yoki munitsipal mulk sifatida davlat tomonidan nazorat qilinadi. Bu suv resurslarining milliy ahamiyatini ta’kidlaydi va ularning barqaror boshqarilishini kafolatlaydi. Xususiy mulk – fuqarolar, fermer va dehqon xo‘jaliklari, shuningdek davlatga tegishli bo‘lmagan boshqa yuridik shaxslar mulkida joylashgan suv obyektlari. Bu qoidalar shaxsiy investitsiyalar orqali suv xo‘jaligini rivojlantirish va ularni samarali boshqarish imkoniyatini beradi. Xorijiy hududlarda joylashgan obyektlar – O‘zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalariga muvofiq, boshqa davlatlarda joylashgan suv xo‘jaligi obyektlari ham O‘zbekiston Respublikasining mulki hisoblanadi. Bu norma suv resurslarining xalqaro himoyasini ta’minlash va suveren manfaatlarni saqlashga xizmat qiladi.

Ekologik huquqlar ta’minlanishi bilan bir qatorda ularga berilgan huquq va majburiyatlani buzilishi hamda ularning atrof-muhitga befarqligi natijasida qonunchilikdagi normalarning buzilishi va huquqbuzarlar javobgarlikka tortilishiga olib keladi. O’zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to’g’risidagi kodeks va Jinoyat kodeksida atrof-muhitni muhofaza qilishga doir normalar belgilangan. Ma’muriy javobgarlik to’g’risidagi kodeksning 72-moddasida ‘’ Suvlarni ifloslantirish yoki bulg‘atish, suvto‘plagich inshootlarida suvni muhofaza qilish rejimini buzish, shuningdek suv obyektlariga oqindi suvlarni oqizishga yo‘l qo‘yish shartlari to‘g‘risidagi talablarni buzish —fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining uch baravaridan besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — besh




https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

baravaridan o‘n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi’’. Mazkur kodeksning 79-moddasida ‘’ Daraxtlarni, butalarni, boshqa o‘simliklarni va nihollarni qonunga xilof ravishda kesish, kundakov qilish, shikastlantirish, yo‘q qilish yoki boshqa joyga ko‘chirib o‘tkazish, —fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravaridan ellik baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — ellik baravaridan yetmish besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi. O‘z hududida binolarni, inshootlarni yoki boshqa obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish chog‘ida belgilangan talablarni buzib, kimyoviy, biologik vositalarni qo‘llagan holda daraxtlarni, butalarni yoki boshqa o‘simliklarni qasddan shikastlantirish, payhon qilish yoki yo‘q qilish, — fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining o‘ttiz besh baravaridan ellik baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — oltmish baravaridan yetmish besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi’’

O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida ekologik jinoyatlar alohida modullar bilan tartibga solingan bo‘lib, ular tabiatni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan huquqiy normalarni buzganlik hisoblanadi. Jinoyat kodeksining 4-bo’limi ekologiya sohasidagi jinoyatlarga bag’ishlangan bo’lib, 193-204-moddalarni o’z ichiga oladi. Jinoyat kodeksining 195-moddasida ‘’Mansabdor shaxsning ekologiyasi ifloslangan joylarni dezaktivatsiya qilish yoki boshqacha tarzda tiklash choralarini ko‘rishdan bo‘yin tovlashi yoki bunday ishlarni yetarli darajada bajarmasligi odamlarning ommaviy ravishda kasallanishi, hayvonlar, parrandalar yoki baliqlarning qirilib ketishi yoki boshqacha og‘ir oqibatlarga sabab bo‘lsa, — bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi’’ deb belgilangan. Mazkur kodeksning 196-moddasida ‘’Yerlarni ifloslantirish yoki buzish, suv yoki atmosfera havosini ifloslantirish odamlarning ommaviy ravishda kasallanishi, hayvonlar, parrandalar yoki baliqlarning qirilib ketishi yoki boshqacha og‘ir

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

oqibatlarga sabab bo‘lsa, —bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi’’.



Ma’muriy javobgarlik ko‘proq kichik yoki o‘rta ekologik huquqbuzarliklarga qo‘llanadi, jinoyat javobgarligi esa jiddiy va barqaror zarar yetkazgan holatlarda tatbiq etiladi. Grafiklar orqali o‘quvchi qaysi yo‘nalishda eng ko‘p huquqbuzarlik sodir bo‘layotganini va davlatning javob choralarini bir qarashda anglay oladi.Ushbu tahlil ekologik qonunchilikni yanada takomillashtirish va ekologik-huquqiy madaniyatni oshirishga ilmiy asos yaratadi.

1960-yillarda Sovet Ittifoqi Qozog'iston, O'zbekiston va Turkmanistonning qurg'oqchil tekisliklarida suvni boshqa yo'nalishga yo'naltirish bo'yicha yirik loyihani amalga oshirdi. Mintaqaning ikki yirik daryosi, qor erishi va uzoq tog'lardagi yog'ingarchilik bilan oziqlanib, cho'lni paxta va boshqa ekinlar yetishtirish uchun fermalarga aylantirish uchun ishlatilgan. Loyihadan oldin Sirdaryo va Amudaryo daryolari tog'lardan oqib tushib, Qizilqum cho'lini shimoli-

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

g'arbga kesib o'tib, nihoyat havzaning eng past qismida birlashgan. Ular yaratgan Orol dengizi bir vaqtlar dunyodagi to'rtinchi eng katta ko'l bo'lgan.


Sug'orish cho'lni gullab-yashnagan bo'lsa-da, Orol dengizini vayron qildi. NASAning Terra sun'iy yo'ldoshidagi O'rtacha aniqlikdagi tasvirlash spektroradiometridan (MODIS) olingan ushbu suratlar seriyasi o'zgarishlarni hujjatlashtiradi. 2000-yilda seriyaning boshida ko'l allaqachon 1960-yilgi uzunligining (sariq chiziq) bir qismi edi. Shimoliy Orol dengizi (ba'zan Kichik Orol dengizi deb ataladi) Janubiy (Katta) Orol dengizidan ajralib chiqqan edi.

Janubiy Orol dengizi sharqiy va g'arbiy qismlarga bo'linib, ikkala uchida ham zaif bog'langan edi. 2001-yilga kelib, janubiy aloqa uzildi va sayozroq sharqiy qismi keyingi bir necha yil ichida tez chekindi. Ayniqsa, Janubiy Orol dengizining sharqiy qismida katta chekinishlar 2005 va 2009 yillar oralig'ida, qurg'oqchilik cheklangan va keyin Amudaryo oqimini to'xtatgan paytlarda sodir bo'lgan ko'rinadi. Keyin suv sathi 2009 va 2018 yillar oralig'ida har yili quruq va nam yillarda o'zgarib turardi. 2014-yilda Janubiy Orol dengizining sharqiy qismi butunlay yo'q bo'lib ketdi. 2018-yil yozida suv sathi bahorda mavsumiy qor erishi natijasida past bo'lmadi



2000-yilda OROL DENGIZI

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026



2018-YILDA OROL DENGIZI

Orol dengizi qurib borishi bilan baliqchilik xo'jaliklari va ularga bog'liq bo'lgan jamoalar qulab tushdi. Tobora sho'rlashib borayotgan suv o'g'it va pestitsidlar bilan ifloslandi. Ochiq ko'l tubidan qishloq xo'jaligi kimyoviy moddalari bilan ifloslangan chang jamoat salomatligi uchun xavf tug'dirdi. Sho'r chang ko'l tubidan uchib chiqib, dalalarga tushib, tuproqni yomonlashtirdi. Ekin maydonlarini tobora ko'proq daryo suvlari bilan yuvish kerak edi. Bunday katta suv havzasining mo"tadil ta'sirining yo'qolishi qishni sovuqroq, yozni esa issiqroq va quruqroq qildi.

Ko'lning bir qismini saqlab qolish uchun so'nggi urinishda Qozog'iston Orol dengizining shimoliy va janubiy qismlari o'rtasida to'g'on qurdi. 2005-yilda qurib bitkazilgan Ko'k-Orol to'g'oni va to'g'oni ikkita suv havzasini ajratib turadi va Shimoliy Oroldan Janubiy Orolning quyi qismiga oqib tushishining oldini oladi. To'g'on Shimoliy Oroldagi baliqchilik xo'jaliklarining tiklanishiga olib keldi, garchi u Janubiy Orolga cheklangan miqdorda suv oqimiga ega bo'lsa ham. 2005 va 2006-yillar oralig'ida Shimoliy Oroldagi suv sathi sezilarli darajada tiklandi va

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

qolgan vaqt davomida juda kichik o'sishlar kuzatildi. Suv rangidagi farqlar cho'kindilar va suv chuqurligining o'zgarishi bilan bog'liq.

Orol dengizining pasayishi nafaqat suv resurslariga, balki mintaqaning iqlimi, biologik xilma-xilligi, sog‘liq holati va iqtisodiyotiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatgan. Quruq qolgan dengiz tubi chang bo‘lib shamollar bilan tarqaladi, bu esa “Orol fojiasi” deb ataladigan ekologik falokatga olib keladi. Shu sababli suv resurslarini oqilona boshqarish, ekologik tiklanish loyihalarini amalga oshirish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish dolzarb hisoblanadi. O‘zbekistonning ekologik huquqbuzarliklar bo‘yicha ma’muriy va jinoyat javobgarligi statistikasi tahlili shuni ko‘rsatadiki:

Ma’muriy javobgarlik ko‘proq kichik yoki o‘rta ekologik huquqbuzarliklarda qo‘llanadi. Eng ko‘p sodir etilgan huquqbuzarliklar: suv resurslaridan noqonuniy foydalanish (557 nafar), ov va baliq ovlash qoidalarini buzish (295 nafar), litsenziyasiz mineral resurs chiqarish (150 nafar). Bu holatlar hududiy ekologik muammolarning keng tarqalganligini ko‘rsatadi.

Jinoyat javobgarligi esa jiddiy va barqaror zarar yetkazgan holatlar uchun qo‘llanadi. Eng ko‘p ekologik jinoyatlar: suv resurslarini noqonuniy ishlatish (120 nafar), atmosfera havosini ifloslantirish (80 nafar), tabiiy resurslarni noqonuniy qazib olish (65 nafar). Bu jinoyatlar atrof-muhitga sezilarli zarar yetkazadi va milliy ekologik xavfsizlikka tahdid soladi.

Orol dengizi misoli ekologik inqirozning hududiy va global ta’sirini ko‘rsatadi. 1960-yilda 68 000 km² bo‘lgan dengiz maydoni 2018-yilda atigi 8 321 km² ga kamaydi. Bu ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan jiddiy oqibatlarga olib keldi.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak ma’muriy va jinoyat javobgarligi bilan ta’minlangan davlat siyosati ekologik barqarorlikni saqlashda muhim vosita bo‘lib,

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

mavjud qonunchilikni samarali qo‘llash orqali Orolbo‘yi va boshqa hududlarda ekologik xavfsizlikni oshirish mumkin.

Quyidagi tavsiyalar amalga oshirilsa, O‘zbekistonning ekologik xavfsizlik tizimi yanada samarali bo‘lib, atrof-muhitni himoya qilish va barqaror rivojlanishga erishish mumkin. Bular:

- Milliy ekologik qonunchilikni takomillashtirish:

Orolbo‘yi va boshqa hududlar uchun maxsus ekologik dasturlar ishlab chiqish.

Ma’muriy va jinoyat javobgarligi choralarini muvofiqlashtirish.

- Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish:

BMT, UNESCO va boshqa ekologik tashkilotlar bilan birgalikda monitoring va tiklash loyihalarini amalga oshirish.

Xalqaro ekologik standartlarga rioya qilish.

- Monitoring va ekologik nazorat mexanizmlarini rivojlantirish

Suv, atmosfera, mineral resurslar va chiqindilarni doimiy nazorat qilish.

Ekologik ma’lumotlarni elektron bazada saqlash va tahlil qilish.

- Jamoatchilik va ekologik-huquqiy madaniyatni oshirish

Aholini ekologik xavfsizlik va qonunchilik haqida xabardor qilish.

Ta’lim va targ‘ibot dasturlari orqali ekologik ongni rivojlantirish.

- Ilmiy tadqiqotlar va loyiha asosida qaror qabul qilish

Hududiy ekologik muammolarni tahlil qilish va ilmiy asoslangan chora-tadbirlar ishlab chiqish.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Orolbo‘yi fojiasi kabi ekologik inqirozlarni oldini olish uchun strategik rejalashtirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasi “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni. Toshkent, 2022.
3. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. Toshkent, 2023.
4. O‘zbekiston Respublikasi “Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risida”gi Kodeks. Toshkent, 2022.
5. Beruniy nomidagi Urganch Davlat Universiteti ekologiya bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar jamlanmasi, 2021–2024.
6. United Nations. “Sustainable Development Goals and Environmental Protection.” New York, 2020.
7. UNEP (United Nations Environment Programme). “Aral Sea Crisis: Environmental Assessment Report.” Nairobi, 2019.
8. Micklin, P. The Aral Sea Disaster. Springer, 2007.
9. Wikipedia contributors. Aral Sea. [https://en.wikipedia.org/wiki/Aral_Sea]
10. World Bank. Environmental Monitoring and Management in Central Asia. Washington D.C., 2021.
11. Legal Info. Environmental Law in Uzbekistan. [https://www.lex.uz]